



UCHINCHI RENESSANS BUNYOD ETISHDA USTOZ VA MURABBIYLARNING O'RNI

Iqtisodiyot va Pedagogika universiteti "Tarix va ijtimoiy fanlar kafedrası"
Milliy g'oya, ma'naviyat asoslari va huquq ta'limi yo'nalishi 1-kurs talabasi

Haydarova Shoxsanam Shavkat qizi

shoxsanamxaydarova616@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada "Renessans" iborasini chuqur ilmiy tahlil qilinadi. IX- XII asrlarning Renessans davri haqida ko'plab yangi ma'lumotlar beriladi. Birinchi va ikkinchi Renssans asoschilarini hamda ularning faoliyati yaratiladi. Uchinchi Renssans qanchalik tezkor amalga oshayotgani ko'rib chiqiladi. Renssans bunyodkorligi yo'lida murabbiy tarbiyachilarning o'rni va xizmati sharafla math etiladi.

Kalit so'z: Renssans, uchinchi Renessans murabbiy, Renessans bunyodkorligi, yoshlarimiz Renessansga bo'lgan qarashlari, tarbiya.

Аннотация: В данной статье проводится глубокий научный анализ понятия «Ренессанс». Представлены новые сведения о Ренессансе IX–XII веков. Рассматриваются основатели Первого и Второго Ренессансов, а также их деятельность. Анализируется динамичность и темпы реализации Третьего Ренессанса. Особое внимание уделяется почётной роли и значимому вкладу наставников и педагогов в созидание и развитие Ренессанса.

Ключевые слова: Ренессанс, Третий Ренессанс, наставник, созидание Ренессанса, взгляды молодежи на Ренессанс, воспитание.

Annotation: This article provides an in-depth scientific analysis of the concept of "Renaissance." It presents new information about the Renaissance period of the 9th–12th centuries. The founders of the First and Second Renaissances and their activities are examined. The rapid implementation of the Third Renaissance is also analyzed. Special attention is given to the honorable role and invaluable



contribution of mentors and educators in the construction and development of the Renaissance.

Keywords: *Renaissance, Third Renaissance, mentor, Renaissance development, youth perspectives on the Renaissance, education.*

Kirish: Har bir insonning o'sib ulg'ayishida ma'naviy tarbiya o'rni muhim ahamiyat kasb etadi. Har qanday kishi biror ma'lumot o'rganar ekan unga avvalo murabbiy kerak. Murabbiy – yo'lni yoritgunchi shamdek go'yo. Qadim davrlardan tortib to hozirgacha ilm – fan kun sayin qadamma qadam rivojlanmoqda. Bunda albatta har bir sohadagi tub burulishlar yangiliklar metod texnikalar sabab bo'lyapti. Renessans davrlari buning yaqqol tasviri uchinchi Renessans bunyod etilishida murabbiy tarbiyachilarimizning ham cheksiz xizmatlari bor. Prezidentimiz SH.M.Mirziyoyev har gal nutq so'zlaganlarida “Yangi o'zbekistonni yangi cho'qqilarga birgalikda olib chiqamiz” degan so'zlari biz yosh avlodga kuch va shijoat beradi.

Asosiy qism: Renessans (uyg'onish davri) – ilk bor g'arbiy yevropa davlatlarida IX- XII asrda yuz bergan alohida madaniy va tafakkuriy taraqqiyot davri. “Renessans” atamasi Italiyadagi madaniy-manaviy yuksalishga nisbatan qo'llanilgan. Uyg'onish davrida ta'lim jonlangan savdo san'at musiqa adabiyot va fan rivoj topgan. Uyg'onish davri dastlab markaziy osiyoda tarqalib so'ngra yevropaning turmush tarzini to'laligicha o'zgartirgan.

IX-XII asrlar birinchi Renessans davri bo'lib Beruniy, Farobiy, Al-Farg'oni, Ibn Sino, Imom Buxoriy, Marg'iloniy kabi allomalarning o'rni beqiyos biz bugungi maqolada Abu – Nasr Farobiy haqida yozadigan bo'lsak jamiyat rivojida o'z o'rniga ega, Sharq mamlakatlarida tarqqiyparvar ijtimoiy falsafiy tafakkur rivojida uning nomi tilga olinadi

Ikkinchi Renessans davrida Mirzo Ulug'bek, G'iyossiddin Koshiy, Ali qushchi singari benazir olimlar Lutfiy Abdirahmon Jomiy, Alisher Navoiy, Bobur Mirzo kabi mumtoz shoir va mutafakkirlar maydonga chiqishgan. Ikkinchi



Renessans davrida ham ko‘plab o‘zgarishlar bo‘lgan. Temiriylar Renessansi haqida yoritsak Samarqandning qayta qurilishi A.Temurning temur shaxmati kashf etilishi, Shoxruh Mirzo va rafiqasi bilan birga olib borilgan Hirotdagi hukmronlik yillari astronom va matematik Mirzo Ulug‘bekning fan sohasidagi sa’y harakatlari madrasa va kutubxonalar qurildi.

Uchinchi Renessans rivojida ustozlar roli muhim chunku ular sifatli ta’lim orqali xalqni yangi davrga tayyorlaydilar, Ilm fan va ijodga yo‘naltiradilar na o‘quvchilarga ustoz sifatida o‘rnak bo‘ladilar, bu esa jamiyatni manaviy yuksalishga olib chiqadi chunki ular otadek ulug‘ qadriga ega deb qaraladi.

Ustozlarning asosiy vazifalari

Ta’lim tarbiya: ular yoshlarga bilim berib ularni jamiyatga foydali insonlar qilib tarbiyalaydilar. Ma’naviy rahbarlik: Ustozlar o‘quvchilarga to‘g‘ri yo‘l ko‘rsatib ularning ijodiy va intellektual salohiyatini uyg‘otadilar.

Renessans g‘oyalarni targ‘ib qilish. uchunchi renessans g‘oyalarini ilm fan madaniyat va ma’naviyatning rivojlanishi yosh avlodga yetkazishda muhim rol o‘ynaydilar. O‘rnak bo‘lish ustozning o‘zi hayotiy tajribasi bilimi va axloqi bilan o‘quvchilarga namuna ko‘rsatadi.

So‘ngi yillarda mamlakatimizda ta’lib bozori shiddat bilan rivojlanmoqda uning moddiy texnik bazasini shakllantirish va mustahkamlash borasida ibratli ishlar bajarildi. O‘qitayotgan va bilim olayotgan kadrlar uchun o‘quv me’yoriy hujjatlarni xalqaro andozalariga moslashtirish borasida ham uzluksiz ishlar davom ettirilyapti O‘zbekiston ta’lim bozorini maktabgacha, umumiy o‘rta. profissional oliy ta’lim, ilmiy tadqiqotlar va malaka oshirish ta’lim bozorlari tashkil etadi. Ularda inson kapitalini rivojlantirish uchun katta mablag‘ ajratilyapti. Shu o‘rinda prezidentimiz “Yangi o‘zbekiston maktab ostonasidan, ta’lim tarbiya tizimidan boshlanadi” degan fikrni bejiz takitlamagani yaqqol namoyon bo‘ladi .

Bu g‘oya ta’lim bozorida mehnat qilayotgan o‘qituvchilarga juda katta mas’uliyat yuklamoqda. Pedagog endi diplomida qayd etilgan muayyan fan bo‘yicha o‘qituvchilik qilishi emas balki shu sohaning mutaxassisi maqomi uchun tinimsiz o‘z



ustida ishlashi kerak bo'lyapti. Islom olami tarixiga murojaat qilsak musulmon ummati doimo ilmni o'qituvchi (mudarris) dan o'rganib kelganiga guvoh bo'lamiz. Kitob yoki qog'ozdan ilm o'rganish makruh sanalgan musulmonlarning ilohiy kitobi Qur'oni karimni Muhammad Alayhi salom ham Jabroil Alayhisalomdan o'rgangan va o'z navbatida Allohning bu kalomini ummatlariga o'qitgan hamda o'rgatgan . Olim kishining bir kunlik ibodati ilmsiz obidning 40 yillik ibodatiga teng ekani hadislarda keltirilgan tarix shohidnislom dini nozil bo'lgach, undan keyingi 200 yilda ta'lim tez rivojlandi. Uning bunday tez taraqqiy etishida jamiyatda o'qituvchi maqomining ulug'langani muhim ahamiyat kasb etdi. Ilm o'rganib ustozlik maqomiga erishish uchun Imom Buxoriy va Imom Termiziy xorijiy yurtlarda ta'lim oladi va o'z vataniga sohaning yetik mutaxassisi bo'lib qaytadi .

Mustaqillikka erishgandan keyin chorak asr davomida milliy tiklanish bilan shug'ullanishga to'g'ri keldi . Endilikda milliy tiklanishdan milliy yuksalishga o'tkanimizdan keyin uchunchu Renessansga erishishni davlat rahbari strategik vazifa etib qo'ydi

Uchinchi Renessans milliy g'oyaga aylanishi zarur

Milliy g'oya aslida muayyan xalqning oliy istiqbol maqsadini bir necha so'zlarda yoki iborada mujassam ifodalovchi tushunchalar yoki shior, iboratdir. U xalqni o'sha maqsad yo'loda birlashtiradi safarbar etadi. Xalq barcha sa'y harakatlarini intilishlarini, bunyodkorlik faoliyatini unga muvofiqlashtiradi. Zarur bo'lsa iqtisodiy ijtimoiy munosabatlarni mamlakatning huquqiy, siyosiy, mafkuraviy asoslarini ta'lim tarbiya tizimini chuqur isloh qiladi. Milliy g'oyaning asosiy vazifalaridan biri avvalo xalqning jipsligini birligini mamlakatning hududiy yaxlitligini saqlash va mustahkamlashdir. Ikkinchidan millatning oliy maqsadini rivojlanish marralarini mo'ljallarini umumiy tarzda aniqlaydi. Milliy g'oya turli iboralarda ifodalanishi mumkin. Lekin ifoda shaklidan qat'iy nazar xalqqa istiqbolni ijtimoiy mo'ljalni ko'rsatish shart .

Istiqlolga erishganimizdan keyin dastlabki yillarda "O'zbekiston kelajagi buyuk davlat" shiori olg'a suruldi u amalda milliy g'oya vazifasini o'tasi va xalqni



birlashtieishda safarbar etishda katta rol o'ynadi. Maskur jozibali shiorda urg'u jamiyatga emas, davlatga berilgandi. Keyinchalik milliy g'oya shaklan takomillashganda "Ozod va obod vatan, erkin va farovon hayot" iborasi olg'a suruldi. Unda urg'u siyosiy tashkilotga emas balki har kishi uchun siyosiy mafkuraviy qarashlardan qat'iy nazar birdek aziz vatanga hamda shaxs va jamiyat hech qachon befarq bo'lmaydigan erkinlikka farovonlikka qo'yildi. Milliy g'oyaning bunday tushunchaviy ifodasi ancha mukammallik kasb etdi.

Ammo uning mazmunini uni amalga oshirish vazifalarini ochib berishga yetarlicha mas'uliyat bilan yondashilmadi. Ayniqsa u islohatlarning yo'nalishlari sohalari turli bosqichlari amaldagi va ehtimoldagi muammolari bilan bog'lanmadi natijada u mafkuraviy chaqiriq quruq shior darajasida qolib ketdi. Aniq muammolar va vazifalardan yiroqligi uchun odamlarga ta'siri asta sekin susaya boshladi

Katta qiziqish va hayiryoqlik bilan kutib olingan "ozod va obod vatan, erkin va farovon hayot" bugungi iqtisodiy ijtimoiy siyosiy ma'naviy hayotimizga real ta'sir ko'rsatyaptimi degan savolga aniq javob berish ancha mushkul.

Milliy g'oyani jonlantirish uchun uni uchinchi Renessans g'oyasi bilan boyitish zarur faqat uchinchi renessansni amalga oshirib biz ozod va obod vatanda erkin va farovon hayotni barpo eta olamiz yoki yanada qulayrog'i uchunchi renessansga erishishni milliy g'oyaning yangi ifodasi debe'lon qilish maqsadga muvofiq.

Hozigi kunda Respublika ta'lim markazi faoliyati zamonaviy talablar asosida qaytadan ko'rib chiqilmoqda. Ta'lim muassassalarini oliy ma'lumotli pedagoglar bilan ta.minlash 87% ni tashkil etyapti bu albatta o'z nanbattida ilm fanning rivoji jadal tarzda o'sib borishi, uchinchi renessans davrida ekanimizni anglatadi ayni vaqtlarda mamlakatimiz hayotida yan bir muhim jarayon "uyg'onish davri" uchinchi renessans so'zlari bir biri bilan hamohang tarzda yangramoqda. Barchani birdek ulug' maqsadlar sari ruhlantiryapti Muxtarm Prezidentimiz SH.M Mirziyoyev uchinchi renessans haqida o'z nutqlarida shunday deydilar:



“Biz uchinchi renessans uchun poydevor qo‘yyapmiz ta’lim maskanlarida zarur sharoitlar yaratilsan bilim olishda o‘zbek bolasidek mehnatkash sabrlisi jahonda yo‘q . Uyg‘onish danri baribir bo‘ladi yangi ulug‘beklar keladi ...”

O‘qituvchi va murabbiylar yangi o‘zbekistonni barpo etishda katta kuch tayanch hamda suyanchimizdir . Rostan ham ilm nurini keng yoyilishida yosh avlod qalbiga sinndirib ularni el yurtga munosin inson etib tarboyalashda zahmatkash va jon kuyar ustozlarimizga ko‘pdan ko‘p tahsinlar aytamiz. Buyuk yunon olimi Aristotelning “Vatan taqdirini yoshlar tarbiyasi hal qiladi” degan so‘zi bor.

Jamiyatning barq urib dunyoga tanilishida zehnli bilimli yoshlar o‘rni nihoyatda katta. Uchinchi renessans masalasi bugunki kunda strategik g‘oya bo‘lib uni milliy g‘oya darajasiga ko‘taryapmiz bularning barchasi o‘z o‘zidan amalga oshayotgani yo‘q. Qanchadan qancha murabbiy va tarbiyachilarimiz kunu-tun izlanishda bo‘lib jiddu jahd bilan yurtimiz ravnaqi yo‘lida jon koyitmoqdalar.

XXI asr texnologiyalar asrida uchinchi renessans davrida o‘zbekiston respublikaasi ham dunyoga tanilib kelmoqda.

Xulosa: Uchinchi renessans bu jadal rivojlanib borayotgan ilm fan tizimi. Bunda zamonaviy texnologiyalar TV internet ijtimoiy tarmoqlar va gadjetlarning o‘rni beqiyos. Ilk renessans davrlarida ham ajdodlarimizning biz bugungi avlod vakillari uchun qilgan harakatlari tahsinga sazovor. Har bir uyg‘onish davrida o‘zining taniqli murabbiylari yetakchilik qilgan.

Prezidentimiz SH. M. Mirziyoyevning “Buyuk kelajagimizni mard va olijanob halqimiz bilan birga quramiz “ kitobida ham ilm fan yutuqlari ilm fan rivoji go‘zal tarzda bayon etilgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR.

1. Mirziyoyev Sh.M. *Yangi O‘zbekiston strategiyasi*. – Toshkent: O‘zbekiston, 2021.
2. Mirziyoyev Sh.M. *Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz*. – Toshkent: O‘zbekiston, 2017.



3. Karimov I.A. *Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch.* – Toshkent: Ma'naviyat, 2008.
4. Farobiy A.N. *Fozil odamlar shahri.* – Toshkent: Fan, 1993.
5. Beruniy A.R. *Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar.* – Toshkent: Fan, 1968.
6. Ibn Sino. *Tanlangan falsafiy asarlar.* – Toshkent: Fan, 1980.
7. Navoiy A. *Mahbub ul-qulub.* – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot, 2011.
8. Ulug'bek M. *Ziji jadidi Ko'ragoniy.* – Toshkent: Fan, 1994.
9. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. – Toshkent, 2023.
10. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining ta'lim va ma'naviyatga oid farmon va qarorlari to'plami. – Toshkent, 2017–2024.
11. Islom ensiklopediyasi. – Toshkent: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2004.
12. Quronov M. *Milliy g'oya va ma'naviyat asoslari.* – Toshkent: Ma'naviyat, 2019.